

## Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun

### FUQAROLIGI BO'LMAGAN ABITURIENTLAR UCHUN TALAB QILINADIGAN HUJJATLAR

Fuqaroligi bo'lmagan (O'zbekistonda BG pasporti borlar) shaxslar (abituriientlar) uchun Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida ro'yxatdan o'tish uchun faqat original pasport olib kelish talab qilinadi.

Pasport ma'lumotlari bazaga kiritiladi va pasportdan skaner va abituriientni rasmga olib bazaga yuklanadi. So'ngra ushbu kiritilgan ma'lumotlar asosida Abituriientlar quyidagi ilovalar orqali onlayn ro'yxatga olinishlarini o'zlari kiritishi mumkin bo'ladi:

1. Davlat test markazi rasmiy veb-sayti (<https://abitur.dtm.uz/>)
2. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (<https://my.gov.uz/>)

### Ro'yxatga olish jarayonida quyidagi hujjatlarning ma'lumotlari kiritiladi:

1. Pasport ma'lumotlari (Institutda kiritilgan ma'lumotlar avtomatik chiqadi);
2. Umumiy o'rta ta'lim (11-sinf negizida) yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini tugatganligi haqidagi hujjat ma'lumotlari;
3. Abituriient imtiyozga ega bo'lsa imtiyozni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari.